

**“TASDIQLAYMAN”**  
**“Agrobank” ATB**  
**Boshqaruvi raisi o‘rinbosari**

**R.U.Mamatqulov**

2016 yil «    »

## **"To'lov terminali ajratish" xizmati Reglamenti**

### **1. Xizmat nomi**

To'lov terminali bi'lan ta'minlash

### **2. Xizmat haqida**

Bank mijozlariga to'lov terminallarini ijaraga berish va ularga servis xizmati ko'rsatish.

### **3. Xizmatning sohaga tegishliligi**

Bank sohasi,

### **4. Xizmatdan foydalanuvchining toifasi**

Yuridik shaxslar, tadbirkorlar.

### **5. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot**

"Agrobank" ATB

### **6. Bog'lanish**

" Agrobank " Aksiyadorlik Tijorat Bank

Manzil: 100096, Toshkent sh., Muqumiy ko'chasi, 43 uy Telefon:

+998 (71) 120-88-33, Email: [headoffice@agrobank.uz](mailto:headoffice@agrobank.uz) Web:

[www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz)

Bog'lanish uchun mintaqaviy va tuman filiallari

[www.agrobank.uz/uz/bankning/branches/](http://www.agrobank.uz/uz/bankning/branches/) manzilida keltirilgan

### **7. Xizmatni ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan hujjatlar**

To'lov terminali bank va savdo va hizmat ko'rsatish ob'ektlari o'rtasida tuziladigan yozma shartnoma asosida taqdim etiladi. Shartnomada amalga oshiriladigan operatsiyalar turlari, ularni bajarish qoidalari. tomonlarning huquq va majburiyatlari, hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari belgilanadi.

### **8. Xizmatni ko'rsatishning huquqiy asosi**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2010 yildagi PQ-1325-sonli "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.09.2004 yildagi 445-sonli "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada



rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 27.07.2009 yilda 1986-son bilan ro'yxatga olingan "To'lov terminalari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida Nizom".

### **9. Xizmat narxi va to'lash tartibi**

Bankning amaldagi tariflariga asosan komission to'lovlar undiriladi,

### **10. Xizmatni ko'rsatish muddati**

To'lov terminali yozma murojaat kelib tushgandan keyin bir oy davomida ajratiladi. Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlarida mavjud bo'lgan to'lov terminaliga dasturiy ta'minot o'rnatib berish bo'yicha murojaatlar bir hafta davomida qanoatlantiriladi.

### **11. Natijani olish usullari**

Yuridik shaxs va tadbirkoriik sub'ekti vakillari tomonidan shaxsan.

### **12. Xizmat natijasi.**

Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini to'lov terminali bilan ta'minlash va ular orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish.

### **13. Rad etish sabablari**

Hizmatni ko'rsatish uchun rad etish sabablari:

- xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan shaxsning mazkur xizmatdan foydalanish uchun huquqi bo'lmasa, yoki boshqa shaxs nomidan ish ko'rish uchun vakolati bo'lmasa;
- taqdim etilgan hujjatlarning belgilangan talablarga mos emasligi;
- taqdim etilgan hujjatlarda xato va noto'g'ri ma'lumotlarning mavjudligi;
- xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan shaxsning belgilangan talablarga mos kelmasligi.

### **14. Terminal ta'mirlash va almashtirish bo'yicha axborot berish tartibi**

-To'lov terminali texnik yoki dasturiy nosoz holatga kelib qolganda, savdo va xizmat ko'rsatish ob'ekti rahbari bu haqda bir kundan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga va xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga yozma yoki electron shaklda xabar berish shart;

-Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari rahbarlari o'n kun muddat ichida to'lov terminalarini soz holatga keltirish choralari ko'rishlari lozim;

-Xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlaridan to'lov terminalarini asossiz ravishda olib qo'yishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **15. Shikoyat arizasi berish tartibi**

- joylarda bank rahbariyatiga shikoyat qilish;
- Bankning markaziy idorasi ishonch telefoni orqali shikoyat qilish;
- Markaziy bankning ishonch telefoni orqali shikoyat qilish.